

**“IKKI ESHIK ORASI” ROMANINING ŌZBEK ADABIYOTIDA
TUTGAN O‘RNI**

Abduholiqova Kamola Abdurahmat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti Ōzbek tili va adabiyoti

1-bosqich talabasi

*Ilmiy rahbar: **Hakimova Farida***

ANONTATSIYA: *Ushbu maqola O‘tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o‘rinlardan birini egallagan “Ikki eshik orasi” romani haqida. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo‘r mahorat bilan tasvirlangani, tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani, uning g‘ayriinsoniy mohiyatiga urg‘u berilgani, urush voqealarining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko‘ngillarga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy holatlarni tashkil etishi haqidagi fikr-mulohazalarining mohiyatini tashkil etadi.*

Kalit sōzlar: *qonliurush, Orif oqsoqol, Robiya, Ra‘no, kompazitsiya, taqdirlar, mashaqqatli paytlar, Xusan Duma. O‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, hayot sinovlari, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirgan yozuvchilar orasida O‘tkir Hoshimov alohida o‘rin egallaydi.*

Uning ijodida insoniylik, mehr-oqibat, vijdon, halollik kabi ezgu fazilatlar asosiy o‘rinda turadi. Ushbu asar uzoq yillik o‘tmishga ega bo‘lishiga qaramay insonlar hayotida alohida o‘rin egallab kelmoqda. Yozuvchi bu asarda mehr oqibat fidoyilik kabi hislatlarni yoritib beradi. Bu asar inson hayotining murakkab yo‘llarini, hayot va o‘lim, ezgulik va yovuzlik, mehr va nafrat, halollik va xiyonat o‘rtasidagi doimiy kurashni badiiy tarzda tasvirlaydi. Ikki eshik orasi asari o‘zbek xalqining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Unda xalqlar turmushi hayotiy obrazlar orqali ochib beriladi va o‘zida chuqur falsafiy mazmun yoritadi. O‘tkir Hoshimov bu asarida insonni eng avvalo vijdon mezonida baholaydi. Insonning lavozimi, boyligi, jamiyatdagi mavqei emas, balki uning halolligi, odamlarga



bo'lgan munosabati, yurak tozaligi muhim deb biladi. Shuning uchun ham romanda ko'plab ijtimoiy muammolar—yolg'on, xiyonat, befarqlik, rahmsizlik, adolatsizlik kabi illatlar tanqid qilinadi. "Ikki eshik orasi" romanida voqea Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, asosan, ikkinchi jahon urushi yillarida bo'lib o'tadi. Shu bilan birga, adib asarda o'rni-o'rnida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan ham hayajonli lavhalar chizadi va bu, albatta, kitobxonga o'sha davr va qaysidir ma'noda davr qurbonlari haqida malumot beradi. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligini mahorat bilan tasvirlangan. Ayniqsa, urush voqeligining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko'ngillariga ozor yetkazgani haqida so'z yuritilgan. Darhaqiqat, ayni zamonamizda ham o'tgan asrlarda ham ota-onaning o'z farzandiga mehri cheksizdir. Ikki eshik orasi romanidagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlarni yoritib bergan. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko'rk bag'ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro'-e'tibori, eng og'ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o'tishga kuch topishi bilan o'quvchi xotirasiga muhrlanadi. U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan o'zbek qariyalariga o'xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o'z qo'liga oladi. Shu bilan birga asarda Robiya ismli ayol qahramon ham mavjud. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asari o'zbek adabiyotining durdonalaridan biri bo'lib, u orqali yozuvchi millat ruhini, xalqning ichki dunyosini, hayotiy haqiqatlarni yuksak badiiy shaklda ifoda etgan. Roman o'zining falsafiy chuqurligi, milliy ruhi, insoniylikni ulug'lovchi g'oyalari bilan o'zbek adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Bugun ham bu asar o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki har bir o'quvchi uchun hayot sabog'iga aylangan. "Ikki eshik orasi" bizni inson umrining eng muhim haqiqatlarini anglashar bir nafasni qadrlashga, hayotni vijdon bilan yashashga o'rgatadi. Shu jihatdan, O'tkir Hoshimov ijodi, xususan, ushbu asari o'zbek adabiyotining ma'naviy xazinasi sifatida doimo e'zozlanadi. Ochlik, yupunlik, ayriliqlar, erta hazon bo'lgan muhabbat alamlari, judolik, qarg'ish, yig'i, g'azab hamma-hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RŎYXATI:

- 1.Hoshimov,O'.(2013).Ikki eshik orasi. Roman.
- 2.Dusenboyev,O."Ikki eshik orasi"romani haqida.
3. Sharafiddinov, O. "Ikki eshik orasi" romani haqida.
- 4.Ahmad,Said."Ikki eshik orasi" romani haqida.
- 5.Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostoni